



IJTIMOYIY TILSHUNOSLIK: TILNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent, Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti,
dilyuldasheva83@gmail.com

Davlatov Xamidxon
"Iqtisodiyot" fakulteti, talabasi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Bu maqolamizda ijtimoiy tilshunoslikning jamiyatdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqola tilning jamiyatdagi o'z vazifasini, insonlar o'rtasidagi fikrlar almashishini tushuntirishga harakat qildik. Tilshunoslikning ijtimoiy kontekstda qanday o'zgarishlarga olib kelishi, jamiyatdagi kommunikatsiya jarayonlariga qanday ta'sir qilishi va jamiyatning boshqa sohalariga o'z mablag'ini qanday keltirishiga doir tahlillar maqolada muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tilshunoslik, mazmun almashish, kommunikatsiya jarayonlari, o'zgarishlar, tilning vazifalari.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению значения социолингвистики в обществе. В статье мы попытались объяснить роль языка в обществе, обмене идеями между людьми. В статье рассматривается анализ того, как лингвистика вызывает изменения в социальном контексте, как она влияет на коммуникативные процессы в обществе и как переносит свои ресурсы в другие сферы жизни общества.

Ключевые слова: Социолингвистика, обмен контентом, коммуникативные процессы, изменения, функции языка.

Abstract: This article is devoted to the study of the importance of sociolinguistics in society. In the article we tried to explain the role of language in society and the exchange of ideas between people. The article examines the analysis of how linguistics causes changes in the social context, how it influences communication processes in society and how it transfers its resources to other areas of society.

Key words: Sociolinguistics, exchange of content, communication processes, changes, functions of language.

Kirish. Tilni to'kis tadqiq etish uchun tilshunoslik doirasidagina ish ko'rishning kamligi bugun shu fan mutaxassislarining hech biriga sir emas. Shu bois, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda boshqa fanlar yutuqlaridan ham keng foydalanilmoqda. Ana shunday urinishlarning samarasi o'laroq, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, pragmalolingvistika kabi sohalar rivoj topmoqda va bu sohalar tilga, an'anaviy strukturalizmdan farqli ravishda doimiy harakatdagi, o'sish-o'zgarishdagi hodisa sifatida yondashayotgani bilan muhim ahamiyat kasb



etmoqda. Sotsiolingvistika ham jamiyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada paydo bo'lgan soha sifatida tilning asoslarini jamiyatdan, jamiyatning asoslarini tildan qidiradi, ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri va yana boshqa masalalarni tekshiradi.

Asosiy qism. O'zbek tilshunosligida tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta'siri masalasiga o'tgan asrning 80 yillarida "Tilshunoslikka kirish" qo'llanmasida alohida to'xtalgan bo'lsa ham til va jamiyat muammolari ancha avvalroq tilga olina boshlangan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko'pmi shunga oid qaydlar bor. M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning "Til va madaniyat" risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so'z ketgan o'rinlar mavjud. Mutaxassislar S.Mo'minovning "O'zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistik aspektidagi ilk ish sifatida qayd etadi. Keyingi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi. Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari sotsiolingvistik tadqiqotlarning naqadar zarurligini milliy tillar va ingliz tili ekspansiyasi misolida ayon etib qo'ydi. Milliy tillar lug'at tarkibiga katta miqdordagi inglizcha so'zlarning kirib borishi til siyosatida o'zgarishlar qilish zarurligini ham ko'rsatmoqda. -O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni o'zbek tilining davlat tili sifatida qaddini ro'y-rost tiklashini, ijtimoiy maqomining yana-da barqarorlashuvini ta'minladi. Ana shu farmonning amaliy ifodasi sifatida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida sotsiolingvistika bo'limining tashkil etilishi esa davlat tili va jamiyat munosabatlarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar kengayishi va kuchayishini ta'minladi. Bu bo'lim o'z faoliyatida o'zbek tilining rivojlanishi bilan bog'liq fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish va kengaytirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqish, o'zbek tilining izohli lug'atlari, davlat tilida ish yuritish bo'yicha qo'llanma va adabiyotlar tayyorlash, davlat tilini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishga alohida e'tibor beradi. Tadqiqotlarda sotsiolingvistikaning rasman AQSHda shakllangani ko'p aytilsa ham uning markaziy masalasi bo'lgan til va jamiyatning o'zaro ta'siri, tilning jamiyatda tutgan o'rni, milliy tillar va davlat tili, til siyosatiga doir qarashlar hind, yapon, ingliz, nemis va chex tilshunosliklarida sotsiolingvistika nomi ostida



bo'lmada, o'rganilgan edi. Amerika tilshunosi U.Labov faol sotsiolingvistik tadqiqotlar ko'p tilli Hindistonda hindiyni yagona davlat tiliga aylantirish g'oyasi bilan bog'liq vaqtlardayoq boshlanganini qayd etadi. Lingvistik adabiyotlarda til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga ta'siri, ikkitillilik va ko'ptillilik, til siyosati, millat va milliy til muammolari sotsiolingvistikaning muhim vazifalari sanaladi. Shu jihatdan tilning sotsial farqlanishi turli maslak, turlicha kasb-kor, turfa aqliy-ruhiy imkoniyatdagi jamiyat a'zolaridan tashkil topganidan kelib chiqadi va bunga mos ravishda har qaysi ijtimoiy guruhning faol hamda nofaol lug'at tarkibi bo'ladi. Jamiyat a'zolarining hududiy mansubligi ham, tabiiyki, har xil. Binobarin, sotsial va hududiy dialektlar ijtimoiy guruhlarning maslak, kasb-kor, aqliy-ruhiy imkoniyat va hududiy kelib chiqishiga ko'ra, tildan foydalanish tarzlaridir.

Shu ma'noda hozirgi zamon sotsiolingvistikasidan sotsial va hududiy dialektlarni shunchaki qayd qilish, lingvistik tabiatini tushuntirishgina emas, balki ulardan unumli foydalanish yo'llarini ko'rsatish ham talab etiladi. Zero, adabiy tilni boyitish, o'zlashma terminlarga milliy muqobillarni topishda sotsial va hududiy dialektlar muhim leksik-semantik manba bo'lishi aniq. Birgina sud-huquq tizimi leksikasida afv, vaj, garov, gumondor, gumonlanuvchi, ijrochi, ish, tadbir, o'zlashtirish so'zlarining ixtisoslashgan, maxsuslashgan yangi ma'nolaridan adabiy tilni boyitish va rasmiy uslub imkoniyatini kengaytirishda foydalansa bo'ladi.

Xulosa. Til va jamiyat ta'sirlashuvi haqida so'z borar ekan, tilning jamiyatga qanday ta'sir etishini ham tushuntirmoq lozim. Mutaxassislar to'g'ri ta'kidlaganidek, tilning jamiyatga ta'siri jamiyatning tilga ta'siriga nisbatan kam o'rganilgan, hatto bunday ta'sirlashuvga shubha bilan qarash ham bor. Bizningcha, tafakkur quroli bo'lgan vositaning jamiyatga ta'sir ko'rsatmasligining o'zi shubhali, chunki til jamiyatni muntazam harakatlantirib turadi va bu tarz ta'sirlashuvning eng ibtidoiy aksi uning axborotni shakllantirish va uzatish vazifasida ko'rinadi. Jamiyatning tilga ta'siri naqd lisoniy natijalarda ko'rinadi, shu sababli, bu tarz ta'sirlashuv shubha uyg'otmaydi, bir qarashdayoq ta'sirlashuv natijalarini ilg'ash mumkin bo'ladi. Tilning jamiyatga ta'siri natijalari tilshunos qayd qila biladigan til materiallarida ifoda topmaydi, balki ijtimoiy hayotning o'zida bo'y ko'rsatadi. Aniq lisoniy material orqali dalillay olinmagani tilning jamiyatga ta'siri mexanizmlarining ochilmay qolishiga olib kelgan. Masalan, adabiy tilning jamiyatga ta'siri, avvalo, milliy birlikni ta'minlashida, qolaversa, ommaviy savodxonlikni shakllantirish va yaxshilashda, ilm-fanni rivojlantirish va



madaniyatni yuksaltirishida, ta'lim-tarbiyada ko'rinadi. Sanoqni yana davom ettirish mumkin. Umuman, jamiyatda axborot uzatilar ekan, unda tilning ishtirok qilmasligi, ta'siri bo'lmasligi mumkin emas.

Xullas, til va jamiyat o'rtasida doimiy ta'sirlashuv kechadi. Fan va ta'lim, madaniyat va san'at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til va jamiyat ta'sirlashuvining asosiy omillaridir. Bunday ta'sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to'lib-to'liqib borishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal, D. (2001). Language and the Internet. Cambridge University Press.
2. Wardhaugh, R. (2010). An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell.
3. Gee, J. P. (2014). An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method. Routledge.
4. Coupland, N. (2014). Sociolinguistics: The Interface Between Language and Society. Palgrave Macmillan.
5. Gumperz, J. J., & Levinson, S. C. (1996). Rethinking linguistic relativity. Cambridge University Press.
6. Agha, A. (2007). Language and Social Relations. Cambridge University Press.
7. Milroy, L., & Milroy, J. (1992). Social network and social class: Toward an integrated sociolinguistic model. *Language in Society*, 21(1), 1-26.
8. Yuldasheva, D. (2022). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH (ON THE EXAMPLE OF TOURISM DIRECTIONS). *Science and innovation*, 1(B7), 1498-1501.
9. Yuldasheva, D. (2021). PHILOSOPHY OF LIFE-AS A DRIVING FORCE. *Theoretical & Applied Science*, (6), 633-635.
10. Yuldasheva, D. A. (2021). Some essential trends in teaching second language vocabulary. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 782-786.
11. Yuldasheva, D. (2022). The Intensification Of Learning Uzbek Language Using Moodle Technology. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.6 Philological sciences).
12. Yuldasheva, D. B. (2021). Approach is the main strategic direction which defines the components of teaching the Uzbek language. *Science and World. International scientific journal*, (2), 90.
13. Dilnoza, Y. (2019). About Conducting Research on the Subject of Ornithological Terms in Uzbek Language. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 7(7), 53-61.



14. Yuldasheva, D. (2022). THE EMERGENCE OF NEW ECONOMIC WORDS AND PHRASES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE MODERN UZBEK LANGUAGE. 湖南大学学报 (自然科学版), 49(10).

